

MAKTABGACHA YOSH DAVRIDA PSIXIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Tursunova Mashxura

Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta’lim (SIRTQI) yo’nalishi

104-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yosh davri psixikasi, kichik guruhdan katta guruhga qadar rivojlanish bosqichlari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so’zlar: maktabgacha yosh davri, kichik guruh, o’rta guruh, katta guruh, diqqat, inqirozlar.

Ontogenezda 3 yoshdan 7 yoshgacha bo’lgan davri maktabgacha yosh davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida o’zgarishlar juda ham tez sodir bo’ladi. Shuning uchun ham biz bu davrni 3 ga bo’lib o’rganamiz:

1. Kichik maktabgacha davr (3-4 yosh)
2. O’rta maktabgacha davr (4-5 yosh)
3. Katta maktabgacha davr (6-7 yosh)

Rus pedagogi Lestgafning fikricha, insonning maktabgacha yosh davri shunday bosqichki, bu davrda bolalarda harakter xislatlarini na’munalari shakllanadi. Axloqiy xarakterining asoslari yuzaga keladi. Bog’cha yoshidagi bolalarni ko’zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri bu ularning harakatchanligi va taqlidchanligi hisoblanadi.

Maktabgacha yosh davrining asosiy mashg’uloti o’yin hisoblanadi. O’yin turlari uchga bo’linadi:

1. Predmetli o’yinlar (legolar) – 15 daqiqadan 20 daqiqagacha
2. Syujetli-rolli o’yinlar (do’kon-do’kon, mehmon-mehmon) – 30-60 daqiqa
3. Qoidali o’yinlar (ma’lum qoidalar asosida) – 1 soatdan 2 kungacha

Maktabgacha yosh davrining asosiy faoliyati quyidagi ketma-ketlikda kechadi:

1. Predmetlarni o’rganadi
2. Individual predmetli o’yinlar
3. Individual va guruhiy ijod
4. Musobaqa o’yinlar
5. Munosabat o’yinlar
6. Muloqot o’yinlar
7. Uy o’yinlari (mehnat)

Maktabgacha yosh davrida bolalar tez o’suvchan bo’ladi. Yangi tug’ilgan chaqaloqning miyasi 380-400 grni tashkil etsa, bu ko’rsatgich bog’cha yoshiga kelib 1100-1200 gmni tashkil etadi, fiziologik jihatdan bog’cha yoshidagi bolaning oyoqlari nisbatan tez o’sadi. Suyaklari esa tog’aysimon bo’ladi.

Maktabgacha yosh davridagi kichik guruh 3 yoshdan 4 yoshgacha bo’lgan bolalarni o’z ichiga oladi. Bunday bolalarning inqirozi o’z “meni” shakllanayotgan davri hisoblanadi. Bunday bolalarda asosan predmetli o’yinlar o’ynaladi. Diqqati tarqoq bo’ladi. Kichik guruh bolalarida aqliy mashg’ulotlarni haftasiga ikki marotaba o’tish maqsadga muvofiq.

Maktabgacha yosh davrining o’rta davri 4-5 yosh bo’lgan bolalarni o’z ichiga oladi. Bu bolalarda ko’proq syujetli-rolli o’yinlar o’ynaladi. Bu guruh bolalari kuniga bitta o’yin va bitta mashg’ulot o’tilsa maqsadga muvofiq bo’ladi.

Maktabgacha yosh davrining uchinchi turi, ya’ni katta davri 6-7 yoshli bolalarni o’z ichiga qamrab oladi. Bunday bolalarda asosan mashg’ulotlar o’tiladi. O’yin turlaridan esa qoidali o’yinlar ko’proq qo’llaniladi. Diqqatni jamlash uchun esa biror takroriy harakatdan foydalaniladi.

Maktabgacha yosh davrida bolalarning xotirasi mexanik xotira hisoblanadi. Bu shunday deganiki, bola bir narsani takror qaytarish orqali, garchi ma’nosini tushunmasa ham yodlab oladi. Bu davrda bolalarga gapirib tushuntirgandan ko’ra ko’rsatib tushintirgan ma’qulroq hisoblanadi. Chunki bola ko’rgan narsasini ko’proq anglab yetadi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, bu davrda bolalarning o’z yosh davriga qarab muloqotga kirishimiz kerak. Ko’proq narsalarni ko’rsatish orqali o’rgatishimiz lozim. Zero, yoshlikda olingan ilm, toshga chizilgan naqsh kabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

5. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16- dekabrda “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risida”gi URK;-595- son qonuni
6. Nishonava Z.T., Alimova G. K. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostika Toshkent: “Fan texnologiyalar” , 2019
7. Xaydarov F.I., Xalilova N. “Umumiy psixologiya”
8. Ivanov I., Zufarova M. “Umumiy psixologiya”. O‘zFMJ,2008